

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Samarqand viloyati Urgut tumani 109-maktab matematika fani o'qituvchisi*

*Xudoyorov Aziz Melimurodovich*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishdagi o'ziga xos xususiyatlari haqida bo'lib, o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, qiziqish, bilim, fan, maktab, o'ziga xos, o'yin, zarur.

Umumta'lim maktabida matematika o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarning kundalik hayotda va kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini mustahkam va ongli ravishda egallashini ta'minlashdan iborat. Ma'lumki, maktab o'quvchilarining ko'p qismi boshlang'ich sinflarda matematika faniga qiziqishi yuqori bo'lgan holda yuqori sinflarga o'tgach bu qiziqish tobora kamayib boradi. Bu bir tomondan matematika fani dasturlarining murakkablashib borishi oqibatida bo'lsa, ikkinchi tomondan o'qituvchilarning o'quvchilar qiziqishini orttirish uchun dastur doirasida qo'shimcha qiziqarli materiallardan foydalanishdagi sustkashligi sababdir. Farobiy matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylilik, ko'rsatmalilik, tushunarlik va izchillik printsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayonining vafandagi bilim shakllarini mohiyatini yoritgan. Uning fikricha ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali o'tishi kerak. Mantiq ob'ekti anglashga qaratilgan va aql yetadigan mohiyatlar tahlil etiladigan fikrlash jarayonining to'g'riligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u nar salarni aniq bilishga yordam beradi. Ko'pincha darsda o'qituvchi o'qitishning kamol toptirish vazifasining qandaydir bir tomoniga e'tibor beradi.

Masalan, bilish jarayonini faollashtirish maqsadida ziyraklik va idrokni oshiradigan vazifalarni qo'llaydi yoki matematika masalalarini yechish orqali analiz va sintez usullarini shakllantiradi yoki o'quv mashg'ulotini qiziqarli shaklda o'tkazish vositasida o'qishning ijobiy motivlarini vujudga keltiradi. Matematika darsida o'qituvchi o'quvchilarga ziyraklik va topqirlikni rivojlantiradigan topshiriqlar, muammoli savollar bersa, didaktik o'yinlarni tavsiya qilsa, kamol toptirish vazifasi yetakchi bo'ladi. Hisoblash malakalarini, matematik operatsiyalarni o'rgatish esa yordamchi vazifaga aylanadi. O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirishning bir necha usuli bo'lib, ulardan biri - unda tasavvur paydo bo'lishi va u taxminlar qilishi mumkin bo'lgan savollar berish tavsiya qilinadi. Masalan: "Hovuz suvga to'lishi uchun qancha vaqt ketishi mumkin?" Bunga o'xshash hayotda uchraydigan voqeaga bog'langan savollar qiziqish uyg'otish baravarida qobiliyat rivojlanishini ta'minlaydi. Bunda o'quvchi aniq javobni bilmasada, hovuzning maydoni, suvning tezligi, quvurning kengligini hisobga olib, har xil taxminlarni ilgari suradi. To'plagan tajribam asosida o'quvchilarning bu fanga qiziqishi yil sayin ortib borayotganiga guvoh bo'lmoqdaman. Zamon shiddat bilan o'zgarib, texnika rivojlanmoqda. Shunga mos ravishda o'quvchilarni ayniqsa, 1-6 sinf o'quvchilarining matematikaga qiziqishi oshmoqda. Yuqori sinflarda mavzular murakkablashgani bois bolalar bu fandan uzoqlashadi. Shunga qaramay, o'qituvchining pedagogik mahorati yuqori bo'lsa, ko'rgazmali o'quv qurollari ko'magida qiziqarli dars o'tishi mumkin. Masalan: 6-sinf matematika darsligidagi «Kordinata tekisligi. Kordinatasiga asosan nuqtaning vaziyatini aniqlash» mavzusini o'rgatganimizda o'quvchilarga koordinata tekisligi ta'rifini, koordinata boshini, koordinata o'qlarini nomlarini o'rgatamiz. Nuqtaning koordinatasi nima ekanligini bilishi, nuqtaning koordinatasini topishni, koordinatasiga asosan nuqtani yasashni o'rganadilar. Mavzuni mustahkamlash jarayonida quyidagi didaktik o'yinlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

**"Ha yoki yo'q" o'yini.** O'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi. Kartochkada 7 ta savol bo'lib, "Ha" yoki "Yo'q" deb javob berishi kerak. "Rost"ga-1, "Inkor"ga-0

raqami qo'yiladi. Hosil bo'lgan 7 xonali son kartochkada berilgan geometrik figuralar ichiga yoziladi.

**"Savollarga javob bering"**. Har bir guruhga savollar avvaldan tayyorlab qo'yilgan konvert ichiga solingan holda beriladi.

"Uchburchak" guruhiga

1-savol. Nuqtaning tekislikdagi o'rni qanday aniqlanadi?

2-savol. Koordinatalar sistemasi deb nimani aytamiz?

"To'rtburchak" guruhiga

1-savol. Koordinatalar tekisligi deb nimaga aytamiz. Koordinata o'qlari haqida ma'lumot bering.

2-savol. Nuqtaning koordinatalari qanday topiladi?

"Kvadrat" guruhiga

1-savol. Koordinatalariga asosan nuqta qanday yasaladi.

2-savol. Koordinata choraklari haqida ma'lumot bering.

Javoblarni guruhlar bilan almashib tekshiradi g'olib guruh rag'batlantiriladi

Aslida soddadan murakkabga tomon, ya'ni hayotiy misollar bilan ko'proq boyitishimiz kerak. Shunda dars ham qiziqarli, ham foydali, ham yodda qoladigan bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, (darslik) T.: 2007.
2. Yusupov A. Ye. Matematik kechalar.- Toshkent: "O'qituvchi", 1977.
3. Abdurahmonov B., Matematik induksiya metodi Toshkent, 2008 .
4. G'ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari.- T.: 2010.